

NEMIS TILI DARSINI TAKOMILLASHTIRISH USULI:

TIL KORPUSLARI

Xadjiyeva Shoira Ganibayevna

SamDCHTI dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya

Ushbu maqolada nemis tilini o'qitishda til korpuslaridan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklari muhokama qilinadi. Aniq misollar asosida sinfda va sinfdan tashqarida korpuslardan foydalanishning ba'zi usullari taqdim etiladi. Maqolaning asosiy maqsadi xorijiy tillarni o'qitishni takomillashtirishning zamonaviy usullari bilan tanishtirishdir.

Kalit so'zlari: korpus lingvistikasi, til korpusi, lingvodidaktika, konkordans ro'yxati, aql xaritasi.

Аннотация

В данной статье речь пойдет о возможностях и преимуществах использования лингвистических корпусов в преподавании немецкого языка как иностранного. На основе конкретных примеров будут представлены некоторые способы применения языковых корпусов на занятиях, а также во внеурочное время. Основной целью статьи является ознакомление читателей с современными методами обогащения обучения иностранным языкам.

Ключевые слова: корпусная лингвистика, лингвистический корпус, лингводидактика, конкордансный список, ассоциативная карта.

Abstract

This article will discuss the ways and advantages of using linguistic corpora in teaching German as a foreign language. Based on specific examples, some ways of using language corpora in the classroom, as well as outside the classroom, will be presented. The main purpose of the article is to present to the readers modern methods of enriching the teaching of foreign languages.

Key words: corpus linguistics, corpus, language teaching, concordance, mindmap.

Til korpusi – ogʻzaki va yozma matnlar yigʻindisi sifatida, maʼlumotlarni boshqarish va foydalanish imkoniyatiga ega dasturiy taʼminot hisoblanadi [1]. Bugungi kunda til korpuslari dunyo miqyosida keng tarqalgan va har taraflama qoʻllanilib kelinmoqda. Birinchi til korpuslari ingliz tili korpuslari boʻlib, 20-asrning ikkinchi yarimida yaratilgan boʻlsa (The Brown Corpus, AQSh va The Lancaster-Oslo-Bergen Corpus, Buyuk Britaniya) [2, 35-38], hozirgi paytda ular juda koʻp tillarda, shu jumladan oʻzbek tilida¹ ham, mavjud. Korpuslarni yaratishning dastlabki maqsadi tildagi turli yozuv janrlarini oʻrganish va ularni solishtirishdan iborat boʻlgan. Keyinchalik, ogʻzaki tilga qiziqishning koʻpaygani hamda korpus lingvistikasi fani rivojlangan sari ogʻzaki nutq korpuslari va koʻplab maxsus korpuslar ham yaratilgan. 90-yillarning boshidan boshlab xorijda elektron korpuslar chet tillarni oʻqitishda ham ishlatila boshladi [3, 16].

Tillarni oʻqitishda korpuslardan foydalanishning motivlari asosan quyidagilar:

- Autentiklik. Til korpuslari haqiqiy materiallardan iborat boʻlib, ulardagi barcha turdagi matnlar ona tili soʻzlashuvchilarga tegishlidir. Yaʼni, matnlar chet tillarini oʻqitishda foydalanish uchun sunʼiy ishlab chiqilmagan. Lemnitzer/Zinsmeister kabi olimlarning fikriga koʻra ham, korpuslar oʻrganuvchilarga tabiiy misollar manbasi boʻlib xizmat qiladi va ularga til oʻrganishning ilk qadamidanoq haqiqiy, jonli til bilan aloqada boʻlishga imkoniyat yaratadi [4, 189].
- Kommunikativ kompetentsiyasining rivojlanishi. Kommunikativ kompetentsiya – bu lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlardan iborat boʻlgan koʻnikma. Korpuslardagi matnlarning koʻpligi, xilma-xilligi, autentikligi va kontekstning mavjudligi kommunikativ kompetentsiyasini samarali rivojlantiradi.

¹ Oʻzbek tilining elektron korpusi, <https://uzbekcorpus.uz/>

- Til korpuslari lingvistik annotatsiyalashgan, ya'ni so'z turkumi, grammatik funksiyalar kabi lingvistik izohlar bilan ta'minlangan. Lingvistik izohlar katta ma'lumotlar bazasida kerakli so'z va konstruksiyalarni tez topishga yordam beradi [4, 16]. Barcha korpuslar bosh sahifasida izlash instruksiyasi bilan ta'minlangan.
- Bundan tashqari, korpuslardan internet orqali xohlagan paytda, xohlagan joyda erkin foydalanish mumkin.

Hozirgacha korpuslar keng ko'lamda asosan ingliz tilini chet tili sifatida o'qitishda qo'llanilib kelinmoqda. Nemis tilini o'qitishda Lüdeling/Walter olimlarning ta'kidlashicha korpuslardan hali yetarli darajada foydalanilgan emas: „*Authentische Beispiele sind zwar in vielen aktuellen Lehrwerken zu finden, aber von einem systematischen Einsatz von Korpusdaten kann in DaF keine Rede sein*“ [5, 7].

Lekin ushbu olimlarning fikriga qo'shilgan xolda aytish joizki, ingliz tilini o'qitishda yig'ilgan tajribalar boshqa tillarni, shu jumladan nemis tilini o'qitishda ham albatta keng qo'llanilishi mumkin [5, 3].


Ingliz tili o'rgatish tajribasiga ko'ra til o'qitishda korpuslardan ikki xil usulda foydalanish mumkin. Birinchidan, korpuslarni dars jarayonida tog'ridan-tog'ri, bevosita qo'llash mumkin. Ikkinchidan, korpuslardan bilvosita, ya'ni o'quv materiallarni va til testlarini yaratish uchun foydalanish mumkin [6, 245-246]. Ikkala usul ham chet tillarni o'qitishda an'anaviy usullarga qo'shimcha bo'lib xizmat qiladi va o'quv jarayonini turlicha o'tkazishga va takomillashtirishga yordam beradi.

Nemis tilini o'qitish jarayonida korpuslarni aynan qay tarzda qo'llash mumkin? Aynan qaysi ko'nikmalarni korpus asosida rivojlantirsa bo'ladi? O'quv materiallarni yaratishda korpuslarning ahamiyati qanday? Quyida bir necha misollar orqali ushbu savollarga javoblar keltirilgan.

Nemis tili korpuslarining soni va turi juda ko'p bo'lganligi tufayli, ularni xorijiy til ko'nikmalarining barchasini rivojlantirishga qo'llasa bo'ladi. Masalan, audio fayllarni o'z ichiga olgan har qanday og'zaki korpus yoki multimodal

korpuslar (Video korpuslar) yordamida tinglab tushunish va talaffuzni mashq qilish mumkin. Buning qulayligi shundaki, ushbu korpuslardagi audio fayllar va vizual materiallar, yani transkriptlar yuklab olinishi mumkin. Muhimi, bularning barchasi autentik va real materiallardir. Aksariyat nemis tili darsliklarida esa sun'iy tuzilgan dialoglar, audio materiallar hali ham nemis tilida so'zlashuvchilarning haqiqiy og'zaki tilidan sezilarli darajada farq qiladi.

Korpuslar o'rganuvchilarga leksik va grammatik bilimlarni ham samarali o'zlashtirishga va mustahkamlashga yordam beradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, korpuslar bevosita, tog'ridan-tog'ri dars paytida ishlatilishi mumkin. Masalan, talabalar yangi o'rganayotgan so'zlarga korpusdan olingan haqiqiy gaplar asosida mustaqil ravishda *mindmap* (aql xaritasi) ishlab chiqishlari mumkin. Misol uchun, *Problem* so'ziga aql xaritasi bunaqa ko'rinishida bo'lishi mumkin:



Bundan tashqari, talabalar yangi so'zlar bilan tanishgandan so'ng, dars vaqtida yoki uyda ushbu so'zlarning ba'zi qo'llash usullarini, ya'ni odatiy lingvistik kontekstni korpusdan foydalanib topishlari va ularni darsda taqdim etishlari mumkin. Keyingi misolda *Termin* so'zining korpusdan olingan odatiy lingvistik kontekstlari keltirilgan:

1. Es besteht jederzeit die Möglichkeit, **einen Termin für** eine Besichtigung zu **vereinbaren**.
2. Eltern sollen einen Termin **telefonisch unter** (09181)2979477 **vereinbaren**.
3. Termin **vor Ort**: Interessierte können **mit ihm** auch einen **persönlichen Termin vereinbaren**.
4. Wer an beiden Tagen verhindert ist, kann einen **gesonderten Termin vereinbaren**.
5. Es besteht ebenso Möglichkeit einen **anderen Termin zu vereinbaren**.

Boshqa mashq turi - talabalar korpus misollari asosida yangi so'zlarning ma'nosini mustaqil ravishda tushunishga harakat qiladi. Yoki, til korpuslari orqali ma'no jihatdan o'xshash birliklar orasidagi farqlarni ham topish mumkin. Korpusdagi konkordanslar yordamida o'quvchilar sinonimlarning har xil qo'llanilishini, ya'ni farqli kontekstlarda ishlatilishini mustaqil ravishda aniqlashi mumkin. Quyidagi misolda *unendlich/ewig* sinonimlarning konkordans ro'yxatidan bir parcha taqdim etilgan:

Den Spieltag rundet auf Lage der ewig junge Klassiker zwischen Rieste und Kalkriese ab.
... des Hasestadions bereits um 18.30 Uhr der ewig junge Klassiker des Altkreises im Fußball zwischen TuS Bersenbrück und Blau-Weiß M...
...u-Weißen sind Tabellenführer und treffen im ewig jungen Nordkreisklassiker auf Verfolger Quitt Ankum, der zuletzt überraschend Lüstring...
... am Sonntag um 14 Uhr Derbyzeit, wenn der ewig junge Altkreis-Klassiker zwischen dem gastgebenden TuS und Quitt Ankum steigt.
...tlich ist Honig, wenn er korrekt gelagert wird, ewig haltbar.
Sie sind wütend, verzweifelt und unendlich traurig.
Mit einem ewig jungen Nordkreis-Klassiker startet der Quakenbrücker SC in die Rückrunde, in der die E...
...schöne Gespenster-Story, bei der es um die ewig aktuelle Frage geht: Kann sich ein eiskalter Menschenschinder zu einem halbwegs gute...
Feminin, grazil und unendlich poetisch bezauberte Lady Vanessa als Meerjungfrau, Königin der Nacht und Maryli...
...tion angewiesen, unser einziger Weg in eine unendlich weit entfernte Außenwelt.
" Auch weiß ich, wie unendlich glücklich ihre Familie ist, mich gefunden zu haben" ; erzählt Giese.

Rasm 1: DeReKo korpusidan olingan konkordans ro'yxati (DeReKo, ochilgan sana 13.12.2023)

Konkordans ro'yxati orqali nafaqat leksik, balki grammatik mashqlar ham dars jarayonida bajarilishi mumkin. Annotatsiyalashgan korpuslarda barcha strukturalarni topish imkoniyati mavjud.

Og'zaki nutq korpuslari alohida ahamiyatga ega, chunki ular orqali o'rganuvchilar so'zlashuv uslubini o'rganishlari mumkin. Aksariyat hollarda standart o'quv darsliklarida so'zlashuv uslubi mavjud emas [7, 3].

Korpuslarning yana katta afzalliklaridan biri – ulardan o'quv materiallar yaratish imkoniyatidir. Nemis tili korpuslari orasida juda ko'p sohaga oid korpuslar mavjud (Spezialkorpora), shu jumladan gazeta korpuslari (Zeitungskorpora), yuridik korpusi (Jurakorpus), tibbiyot korpusi (Medizinkorpus), IT korpusi (IT Blogs), moda korpusi (Mode- und Beauty-Blogs), o'rganuvchilar korpusi (Lernerkorpora) va ko'plab boshqa maxsus korpuslar.

Yuqorida aytilgan mulohazalardan ko'rinyaptiki, til korpuslarning imkoniyatlari cheksiz. Korpuslar yordamida o'quvchilarning sohasiga, ularning til

bilish darajasiga moslashgan tarqatma materiallar, o'quv qo'llanmalar va, qolaversa, darsliklar yaratsa bo'ladi. Yaxshi o'qitishning va o'qishning asosiy mezoni – faol ta'limdir. Til korpuslardan unumli foydalanish faol ta'limni shakillantirishning kafolatidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://uzbekcorpus.uz/aboutCorpus>
2. Stig Johansson, Some aspects of the development of corpus linguistics in the 1970s and 1980s, Volume 1, edited by Anke Lüdeling and Merja Kytö, Berlin, New York: De Gruyter Mouton, 2008, pp. 33-53.
3. Bernardini Silvia, Corpora in the classroom. An overview and some reflections on future developments. In: John McH. How to Use Corpora in Language Teaching, edited by John McH Sinclair, John Benjamins Publishing Company, 2004, pp. 15-36.
4. Lemnitzer Lothar/Zinsmeister Heike, Korpuslinguistik. Eine Einführung. 3. über. Auflage. Tübingen: Narr Francke Attempto Verlag, 2015.
5. Anke Lüdeling & Walter, Maik, Korpuslinguistik für Deutsch als Fremdsprache. Sprachvermittlung und Spracherwerbsforschung. Stark erweiterte Fassung von Lüdeling/Walter (erscheint) Korpuslinguistik. In: HSK 19, Deutsch als Fremdsprache. Berlin: Mouton de Gruyter, 2009.
6. Meier, Nadine, Linguistische Korpora im Spanischunterricht. Eine didaktische Exploration. Dissertation, 10.5283/epub.40652, 2018.
7. Xadjiyeva Shoir, Лингвистические корпусы и их применение в лингводидактике. Хорijiy filologiya: til, adabiyot, ta'lim, №1 (82), 2022.

Nemis tili korpuslari (ro'yxat to'liq emas):

<https://www.ids-mannheim.de/digspra/kl/projekte/korpora/>

<https://www.dwds.de/r>

https://gewiss.uni-leipzig.de/index.php?id=corpus_design_gewiss

https://daad-gda.sprache-interaktion.de/?page_id=26

<https://dafdaz.sprache-interaktion.de/lerneinheiten/>